

**Toshkent viloyat adliya boshqarmasining 2026-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan
ISH REJASI**

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash**
I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, BOSHQARMA VA UNING TIZIMIGA KIRUVCHI IDORALAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA						
1.	Quyidagi tuman adliya bo'limlari (YXKM, DXM, FHDY) faoliyatini kompleks tekshirish: Piskent tuman adliya bo'limi; Bo'stonliq tuman adliya bo'limi. Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish.	fevral, may	D.Xudoyqulov, boshqarma tarkibiy bo'linmalari	Piskent va Bo'stonliq tuman adliya bo'limlarining faoliyati boshqarma tomonidan so'nggi uch yil mobaynida kompleks tekshiril-magan.	Adliya organlari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish.	3
2.	Quyidagi FHDY bo'limlari faoliyatini tekshirish: Angren, Ohangaron, Nurafshon shahar va Zangiota tuman FHDY bo'limlari; Bekobod, Bo'ka, Yangiyo'l tuman va Yangiyo'l shahar FHDY bo'limlari; Quyichirchiq, Oqqo'rg'on tuman FHDY bo'limlari.	fevral aprel iyun	I.Bekniyazov, S.Yuldashev, D.Xudoyqulov	Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktyabrdagi 550-son Qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish" Qoidalar 222-bandi (FHDY organlarining faoliyati hududiy adliya organlari tomonidan har yili tekshirishi lozim).	Qonun hujjatlari talablariga rioya qilinayotgan ligini o'rganish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan qonunbuzilish holatlarini oldini olish.	3
II. HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTINI O'RGANISH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH SOHASIDA						
3.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hududiy boshqarmasi faoliyatida	yanvar-fevral	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, N.Ismailov, R.Surobov,	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi faoliyati yuzasidan so'nggi uch yil mobaynida	Investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida belgilangan me'yor va talablarning bajarilishini ta'minlash,	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: boshqarma faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish; boshqarmaning vazifa va funksiyalari samaradorligini tahlil qilish; boshqarma faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish maqsadida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish; zaruratga ko'ra sohani takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish; o'rganish jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash. Natijasi bo'yicha vazirlik funksiyalarini GPR usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, Adliya vazirligiga kiritish.		A.Rashidov, Sh.Nu'manov, A.Toshmatjonov, M.Abdjalov, tuman(shahar) adliya bo'limlari	kompleks o'rganish va monitoring amalga oshirilmagan. Nazorat tadbirlari muvofiqlashtirilmagan va huquqni qo'llash amaliyoti tizimli tahlil etilmaganligi sababli vazirlikka yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish samaradorligini baholash imkoniyati cheklangan. Bu esa nazorat tizimini kuchaytirish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.	vazifa va funksiyalarni amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning belgilangan talablarga mosligini nazorat qilish orqali vazirlikning samarali va sifatli faoliyatini yo'lga qo'yish.	
4.	Fuqarolarning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarini to'liq ta'minlash maqsadida "Mulk huquqlari kafolatlari" huquqiy oyligini o'tkazish. Huquqiy oylik natijasiga ko'ra, Adliya vazirligiga axborot kiritish.	yanvar-fevral	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, R.Surobov, Sh.Nu'manov, tuman(shahar) adliya bo'limlari	Tahlil natijasiga ko'ra, hozirda respublika bo'yicha 18 mingga yaqin ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsada, unga bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan. Oqibatda, ushbu ko'chmas mulklar egalariga soliq qonunchiligi bo'yicha uch karra soliq stavkasi qo'llanilmoqda.	Respublikadagi 18 mingga yaqin ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga ko'maklashish orqali fuqarolarning mulk huquqlarini to'liq ta'minlash hamda uch karra soliq to'lanishini oldini olish.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
5.	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi hududiy tuzilmasi faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: tuzilma faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish; tuzilmaning vazifa va funksiyalari samaradorligini tahlil qilish; tuzilma faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish maqsadida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish; zaruratga ko'ra sohani takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. O'rganish jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlab Adliya vazirligiga kiritish.	fevral-mart	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, N.Ismailov, R.Surobov, A.Rashidov, Sh.Nu'manov, A.Toshmatjonov, M.Abdjalov, tuman(shahar) adliya bo'limlari	Sohada Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan so'nggi uch yil mobaynida Agrosanoatni rivojlantirish agentligi faoliyati yuzasidan kompleks o'rganish va monitoring amalga oshirilmagan. Nazorat tadbirlari muvofiqlashtirilmagan va huquqni qo'llash amaliyoti tizimli tahlil etilmaganligi sababli inspeksiya xizmatlari sifati va agrosanoat loyihalarining samaradorligini baholash imkoniyati cheklangan. Bu esa nazorat tizimini kuchaytirish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.	Qishloq xo'jaligi va agrosanoat sohasida belgilangan me'yor va talablarning bajarilishini ta'minlash, inspeksiya nazorat tadbirlarini qonuniylik asosida amalga oshirish hamda ishlab chiqarish va resurslardan foydalanish jarayonlarining belgilangan standartlarga mosligini nazorat qilish orqali xavfsiz, samarali va sifatli agrosanoat faoliyatini yo'lga qo'yish.	3
6.	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi hududiy tuzilmasi faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: tuzilma faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish; tuzilmaning vazifa va funksiyalari samaradorligini tahlil qilish; tuzilma faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning	mart-aprel	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, N.Ismailov, R.Surobov, A.Rashidov, Sh.Nu'manov, A.Toshmatjonov, M.Abdjalov, tuman(shahar) adliya bo'limlari	Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi faoliyati yuzasidan so'nggi uch yil mobaynida kompleks o'rganish va monitoring amalga oshirilmagan. Nazorat tadbirlari muvofiqlashtirilmagan va huquqni qo'llash amaliyoti tizimli tahlil etilmaganligi sababli qo'mitaga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish samaradorligini baholash imkoniyati cheklangan.	Avtomobil yo'llari sohasida belgilangan me'yor va talablarning bajarilishini ta'minlash, vazifa va funksiyalarni amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning belgilangan talablarga mosligini nazorat qilish orqali qo'mitaning samarali va sifatli faoliyatini yo'lga qo'yish.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish maqsadida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish; zaruratga ko'ra sohani takomillashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish; o'rganish jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash. Natijasi bo'yicha tuzilma funksiyalarini GPR usullaridan foydalangan holda maqbullashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqib, Adliya vazirligiga kiritish.			Bu esa nazorat tizimini kuchaytirish va me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.		
7.	Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash hamda oilaviy zo'ravonlik holatlarini oldini olish maqsadida "Xotin-qizlar huquqlari kafolatlari" huquqiy aksiyasini o'tkazish. Aksiya natijasiga ko'ra, rahbariyatga, zaruratga ko'ra Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	mart-aprel	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, R.Surobov , Sh.Nu'manov, tuman(shahar) adliya bo'limlari	So'nggi paytlarda oilada ayollarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik holatlari ko'payib bormoqda. Shu bois, ushbu sohada fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirish hamda zo'ravonlik holatlarini oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish zarurati yuzaga kelmoqda.	Xotin-qizlar huquqlari ta'minlanib, fuqarolar o'rtasida oilaviy zo'ravonlik holatlarini oldini olish bo'yicha tegishli choralar ko'rish.	3
8.	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasining hududiy tuzilmasi faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda: inspeksiya faoliyatida huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish;	aprel-may	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, N.Ismailov , R.Surobov, A.Rashidov, Sh.Nu'manov, A.Toshmatjonov, M.Abdjalov	Sohada Transport vazirligi tomonidan so'nggi uch yil mobaynida inspeksiya faoliyati yuzasidan kompleks o'rganish va monitoring ishlari amalga oshirilmagan. Nazorat tadbirlarining muvofiqlashtirilmaganligi va	Avtotransport harakati va yuk tashish sohasida belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash, nazorat tadbirlarini qonuniylik asosida amalga oshirish hamda transport vositalari texnik holatining belgilangan	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	inspeksiyaning vazifa va funksiyalari samaradorligini tahlil qilish; inspeksiya faoliyatini takomillashtirish, shu jumladan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishning soddalashtirilgan tartibini ishlab chiqish maqsadida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish; zaruratga ko'ra sohani takomillashtirish bo'yicha normativ - huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. O'rganish jarayonida aniqlangan muammova kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlab Adliya vazirligiga kiritish.			huquqni qo'llash amaliyotining tizimli tahlil qilinmaganligi tufayli inspeksiya xizmatlari sifatini baholash imkoniyati cheklangan. Shu bilan birga, avtotransport harakati va yuk tashish jarayonlarida yetarli nazorat o'rnatilmagan.	standartlarga mosligini ta'minlash orqali xavfsiz va sifatli transport xizmatlarini yo'lga qo'yish.	
9.	Yoshlar, jumladan uyushmagan yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini aniqlash, o'rganish va buzilgan huquqlarini tiklash, bolalar zo'ravonligini oldini olish, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, bolalar va yoshlarning huquqlari kafolatlari ta'minlanishini yanada kuchaytirish maqsadida “Bolalar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish” huquqiy aksiyasini o'tkazish. Aksiya natijasiga ko'ra, Adliya vazirligiga axborot kiritish.	may-iyun	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, R.Surobov , Sh.Nu'manov, tuman(shahar) adliya bo'limlari	Maktabgacha va maktab ta'limi muassasalarida bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari, shu jumladan jinsiy zo'ravonlik holatlari soni ko'payib bormoqda. Shu bois, ta'lim muassasalarida va mahallalarda bolalar, pedagoglar va ota-onalar o'rtasida keng qamrovli tushuntirish hamda suhbatlar o'tkazish maqsadga muvofiq.	Bolalar va yoshlar huquqlari davlat himoyasida ekanligini singdirish, bolalar va yoshlar bilan manzilli ishlash, ularning muammolarini o'rganish, tahlil qilish va ularning buzilgan huquqlarini tiklash, bolalar zo'ravonligini oldini olish, nogironligi bo'lgan bolalar huquqlarini ta'minlash. Shuningdek, bolalar va yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish–vakolatlitashkilotlar bilan hamkorlikda bolalar va yoshlarning qiynab kelayotgan huquqiy	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash**
					muammolarga yechim topish.	
III. HUQUQIY XIZMAT KO'RSATISHNI TARTIBGA SOLISH, NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR, HUQUQIY TARG'IBOT VA YURIDIK XIZMAT SOHASIDA						
10.	Raqamli xavfsizlik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	fevral	I.Bekniyazov, Sh.Nu'manov , tuman(shahar) adliya bo'limlari	Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi, onlayn firibgarlik va kiberhuquqbuzarliklar soni ortib bormoqda.	Aholiga shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid qonun hujjatlari mazmunini yetkazish, onlayn firibgarliklardanhimoyalanish usullarini huquqiy jihatdan tushuntirish, raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, ushbu sohada huquqiy targ'ibot materiallarini ishlab chiqish.	4
11.	Olmaliq shahri xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ch.Bekmuratova; Angren shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius N.Miraxmedova, Bo'ka tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sh.Yoqubova; Qibray tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius A.Umarov, Zangiota tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius D.Nosirova; Bo'stonliq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius M.Xalilova, Qibray tumanida xususiy	fevral mart aprel may	I.Bekniyazov, J.Aliyev	Notariat to'g'risidagi Qonunning 22 ¹⁰ -moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 27.07.2021-yil kunidagi 464-son qarori bilan tasdiqlangan Notariat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga notariuslar tomonidan rioya etilishi ustidan nazorat qilish tartibi to'g'risidagi Nizom.	Notariuslarning faoliyatiga ko'maklashish va ular faoliyatida qonun buzilish holatlarining oldini olish.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baho- lash**
	amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius X.Mardiyev; Parkent tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius R.Tilavov, Zangiota tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sh.Yusupov, Chirchiq shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius P.Umarovalar faoliyatini rejali tekshirish tadbiri orqali tekshirish. Natijasi yuzasidan taklif kiritish.	iyun				
12.	Quyidagi advokatlik tuzilmalari faoliyatida litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishini o'rganish: Yuqorichirchiq tumanidagi "ASHIRBAEVA GULZIPA" advokatlik byurosi; "XAMIDOVA MUXABBAT XAMIDOVNA" advokatlik byurosi; "ADOLAT USTUNI" advokatlik byurosi; Parkent tumanidagi "QALQON PLYUS HUMOYUN" advokatlik firmasi.	aprel iyun	I.Bekniyazov, J.Aliyev)	"Advokatura to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 05.08.2022-yildagi 432-son qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizom.	Mavjud amaliyotni birxillashtirish, muammolarni aniqlash va amaliy yordam ko'rsatish	3
13.	Advokatlar palatasi hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartiblarini tahlil qilish.	mart	I.Bekniyazov, J.Aliyev	So'nggi paytlarda malaka komissiyalari faoliyati yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek advokatlar tomonidan ham e'tirozlar ko'payib bormoqda.	Malaka komissiyalar faoliyatidagi tizimli muammolarni aniqlanadi va ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.	2

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	Natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga taqdim etish.					
14.	O'zbekiston talabalar sporti Assotsiatsiyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining "SKUF" sport klubi faoliyatini o'rganish.	mart-aprel	I.Bekniyazov, A.Rahmatullayev	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan "nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini Adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 3-bandiga asosan rejali o'rganish-Adliya organi rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan ish rejaga muvofiq o'tkaziladigan o'rganish. Bunda NNTni ish rejaga qo'shish uchun asos uning davlat (hisob) ro'yxatidan o'tkazilganidan yoki oxirgi o'rganish o'tkazilganidan uch yil o'tganligi hisoblanadi. Mazkur nodavlat notijorat tashkilotlarining oxirgi marta o'rganilganiga 3 yildan oshgan.	Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlari va o'z ta'sis hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash.	3
15.	Bolaning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi har qanday xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy va profilaktik yo'nalishdagi media materiallarni tayyorlash.	aprel	I.Bekniyazov, Sh.Nu'manov , S.Yuldashev, tuman(shahar) adliya bo'limlari	Mamlakatda bolalar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mavjud bo'lishiga qaramay, amaliyotda bolalarga nisbatan zo'ravonlik, beparvolik, ruhiy ta'sir o'tkazish, ekspluatatsiya qilish kabi holatlar hamon uchrayotganligi. Shu bois bolalarning hayoti, sog'lig'i va sha'ni daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan ogohlantiruvchi, profilaktik va ma'naviy-ma'rifiy media	Bolalarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishga qaratilgan huquqiy-ma'rifiy tushunchalarni jamiyat orasida keng targ'ib etish, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, ota-onalar hamda Tarbiyachilarda huquqiy mas'uliyat va ogohlikni kuchaytirish hamda milliy va xalqaro huquqiy normalari,	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
				mahsulotlarni yaratish zarurati mavjud.	sog'lom va xavfsiz tarbiya muhiti g'oyalarini targ'ib qiluvchi media mahsulotlar orqali aholining huquqiy ongini yuksaltirish.	
16.	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlarining talabnoma-da'vo ishlarini yuritish bo'yicha faoliyatini o'rganish	aprel	I.Bekniyazov, A.Toshmatjonov	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.06.2021-yildagi PQ-5168-sonli qarori hamda Adliya vazirining 2023-yil 5-iyundagi 133-um-son buyrug'i	Mavjud amaliyotni birxillashtirish, muammolarni aniqlash va amaliy yordam ko'rsatish	3
17.	O'zbekiston transport, yo'l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Toshkent viloyati kengashini o'rganish.	may	I.Bekniyazov, A.Rahmatullayev	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan "nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini Adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 3-bandiga asosan rejali o'rganish-Adliya organi rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan ish rejaga muvofiq o'tkaziladigan o'rganish. Bunda NNTni ish rejaga qo'shish uchun asos uning davlat (hisob) ro'yxatidan o'tkazilganidan yoki oxirgi o'rganish o'tkazilganidan uch yil o'tganligi hisoblanadi. Mazkur nodavlat notijorat tashkilotlarining oxirgi marta o'rganilganiga 3 yildan oshgan.	Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlari va o'z ta'sis hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash	3
18.	Onlayn davlat xizmatlarini olish bilan bog'liq videoroliklar seriyasini tayyorlash va keng tarqatish.	may	I.Bekniyazov, Sh.Nu'manov, S.Yuldashev,	Onlayn davlat xizmatlari soni tobora ortib bormoqda. Biroq aholining barcha qatlamlari ushbu	Onlayn davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonini bosqichma-	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
			tuman(shahar) adliya bo'limlari	xizmatlardan samarali va to'liq foydalana olmayapti. Buning asosiy sababi fuqarolarning raqamlashtirish bo'yicha savodxonligi yetarli darajada emasligi, shuningdek, xizmatlardan foydalanish tartibi haqida tushunarli va sodda ma'lumotlarning kamligi. Shu bois, onlayn davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonini bosqichma- bosqich, oddiy va vizual shaklda tushuntirib beruvchi videoroliklar tayyorlash dolzarb hisoblanadi.	bosqich, oddiy va vizual shaklda tushuntirib beruvchi videoroliklar tayyorlash dolzarb hisoblanadi. Bunday videoroliklar mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga, aholining xabardorligini oshirishga va davlat xizmatlaridan foydalanish samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.	
19.	Qurilish faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan ruxsatnomalarni olish tartibi, shuningdek, uy-joy sotib olayotganda fuqarolar e'tibor qaratishi lozim bo'lgan asosiy huquqiy jihatlar bo'yicha aholiga sodda va tushunarli tilda ma'lumot berishga qaratilgan huquqiy targ'ibot va axborot tarqarish materiallari to'plamini tayyorlash.	may	I.Bekniyazov, Sh.Nu'manov , S.Yuldashev, tuman(shahar) adliya bo'limlari	Aholi o'rtasida qurilish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur ruxsatnomalar olish tartibi, uy-joy sotib olish jarayonidagi huquqiy talablar va ularga rioya qilinmasligining oqibatlar haqida yetarli darajada ma'lumotga ega bo'lmaslik holatlari saqlanib qolmoqda. Mazkur bilim yetishmovchiligi ayrim fuqarolarning noqonuniy qurilish ishlarini boshlashi, hujjatlarni rasmiylashtirishda xatolarga yo'l qo'yishi, firibgarlik qurboniga aylanishi yoki kelgusida mulk huquqi bilan bog'liq nizolarga duch kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli keng ommaga mo'ljallangan tushuntirish va ogohlantiruvchi media mahsulotlar	Aholining qurilish faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan ruxsatnomalar, uy-joy oldi- sotdisi jarayonidagi muhim huquqiy talablar va firibgarlikdan himoyalani bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish. Shuningdek, qurilishga ruxsat olish tartibi, hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish va uy-joy xaridida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan asosiy jihatlar haqida sodda va tushunarli targ'ibot materiallari orqali fuqarolarda ogohlik va mas'uliyatni kuchaytirish.	4

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
				tayyorlash dolzarb vazifa hisoblanadi.		
20.	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan davlat tashkilotlarining hujjatlarini "E-huquqshunos" elektron tizimida "paket" usuli orqali qabul qilish tartibini joriy qilish.	may	I.Bekniyazov, A.Toshmatjonov	Tahlil natijasiga ko'ra, xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar tomonidan ichki hujjatlarini (ariza, bildirgi, bayonnoma va boshqalar) yuritish raqamlashtirilmagan.	YXKMlar tomonidan xizmat ko'rsatilayotgandavlat tashkilotlarining hujjatlarni yuritish jarayonini to'liq raqamlashtirish.	4
21.	Yuridik xizmat ko'rsatish markazlari xizmat ko'rsatayotgan davlat tashkilotlar tomonidan xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish kiritish hamda bekor qilish bilan bog'liq jarayonlarni avtomatlashtirish.	may	I.Bekniyazov, A.Toshmatjonov	Tahlil natijasiga ko'ra, xizmat ko'rsatilayotgan tashkilotlar tomonidan xo'jalik shartnomalari tuzilgandan so'ng, taraflar tomonidan shartnoma shartlarini bajarmaslik holatlari uchramoqda. YXKMlar tomonidan shartnoma loyihalari huquqiy ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng, uning bajarilishini joyiga chiqqan holda monitoring qilish uchun resurs (xodimlar soni) yetarli emas.	YXKMlar tomonidan xizmat ko'rsatilayotgan davlat tashkilotlari tomonidan xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish kiritish va bekor qilish bilan bog'liq jarayonlarda qonuniylikni ta'minlash hamda ushbu jarayonlarni raqamlashtirish orqali mavjud resurslardan samarali foydalanish.	4
22.	O'zbekiston qilichbozlik federatsiyasi Toshkent viloyat bo'linmasi faoliyatini o'rganish.	iyun	I.Bekniyazov, A.Rahmatullayev	Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qarori bilan tasdiqlangan "nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini Adliya organlari tomonidan monitoring qilish va o'rganish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 3-bandiga asosan rejali o'rganish-Adliya organi rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadigan ish rejaga muvofiq o'tkaziladigan o'rganish. Bunda NNTni ish rejaga qo'shish uchun asos uning davlat (hisob)	Nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan qonun hujjatlari va o'z ta'sis hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
				ro'yxatidan o'tkazilganidan yoki oxirgi o'rganish o'tkazilganidan uch yil o'tganligi hisoblanadi. Mazkur nodavlat notijorat tashkilotlarining oxirgi marta o'rganilganiga 3 yildan oshgan.		
23.	Toshkent viloyati Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan yuridik xizmati xodimlarining ish joyini moddiy-texnika jihatidan jihozlashga doir minimal talablarga rioya etilishini o'rganish.	iyun	I.Bekniyazov, A.Toshmatjonov	Adliya vazirining 2017-yil 28-fevraldagi 41-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 2863)	Mavjud amaliyotni birxillashtirish, muammolarni aniqlash va amaliy yordam ko'rsatish	3
IV. DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISH SOHASIDA						
24.	Tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga rioya etilishi holatini o'rganish.	aprel	I.Bekniyazov, S.Yuldashev	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.06.2022 yildagi "Kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 346-sonli Qarori	Qonun hujjatlari talablariga rioya qilinayotganligini o'rganish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan qonunbuzilish holatlarini oldini olish	3
25.	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasining Toshkent viloyati boshqarmasi va tuman (shahar) bo'limlari tomonidan: davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlar va tartiblarga rioya etilishini savolnomasi asosida o'rganish va	aprel-may	I.Bekniyazov, A.Rashidov , tuman (shahar) adliya bo'limlari	Oirgi 3 yil ichida ushbu sohada o'rganish (tekshirish) o'tkazilmagan hamda jami 8 turdagi davlat xizmatlari an'naviy tarzda ko'rsatilib kelinmoqda. Elektron tizim joriy qilinmagan hamda masofadan monitoring va nazorat	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi ning Toshkent viloyati boshqarmasi va uning tarkibiy tuzilmalari hamda tuman (shahar) bo'limlarida qonunchilik hujjatlarida	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	tegishli choralar qo'llash hamda rahbariyatga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish.			tadbirlari o'tkazishni imkoniyati cheklanilgan.	belgilangan muddatlar va tartiblarga rioya etilishini hamda jismoniy va yuridik shaxslarga sifatli hamda tezkor davlat xizmati ko'rsatilishini ta'minlash.	
26.	Qayta tashkil etish yo'li bilan tuzilayotgan tadbirkorlik subyektlarini — yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish tartibiga rioya etilishi holatini o'rganish.	may-iyun	I.Bekniyazov, S.Yuldashev	Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.	Qonun hujjatlari talablariga rioya qilinayotganligini o'rganish va kelib chiqishi mumkin bo'lgan qonunbuzilish holatlarini oldini olish.	3
V. INTELEKTUAL MULK SOHASIDA						
27.	Fuqarolarda intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish hamda kontrafakt mahsulotlarni asl mahsulotlardan farqlash, ularning zararlari to'g'risida ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta va jurnal) va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot ishlarini amalga oshirish.	fevral	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, T.Abdurasulmirzo , Sh.Nu'manov	Keyingi vaqtlarda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligi sababli mazkur vositalar orqali huquqiy targ'ibot tadbirlarini ko'paytirish zarurati mavjud.	Aholining huquqiy savodxonligini oshirish orqali kontrafakt mahsulotlar ishlab chiqarilishini kamaytirish.	4
28.	Fuqarolarda intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish maqsadida ta'lim muassasalari, mahallalarda va mehnat jamoalarida targ'ibot tadbirlarini tashkil etish.	aprel	R.Mirzaxmetov, I.Bekniyazov, T.Abdurasulmirzo , Sh.Nu'manov	Fuqarolarda intellektual mulk bo'yicha bilimlarning yetarli emasligi.	Fuqarolarning intellektual mulk bo'yicha huquqiy bilimlarini oshirish.	4
29.	Biologik faol moddalarni olib kirish hamda ishlab chiqarish uchun ruxsatnoma berish jarayonida intellektual mulk obyektlariga (tovar belgisi va sanoat namunasiga) bo'lgan huquqlarga rioya etilgani holatini o'rganish. O'rganish natijasi yuzasidan	may	R.Mirzaxmetov, T.Abdurasulmirzo	Mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda Sog'liqni saqlash vazirligi va tizim tashkilotlarida o'rganish va monitoring o'tkazilmagan. Biologik faol moddalarni olib kirish va ishlab chiqarish uchun ruxsatnoma berish jarayonida	Biologik faol moddalarni olib kirish va ishlab chiqarish uchun ruxsatnoma berish jarayonida intellektual mulk obyektlariga rioya etilishi holatini o'rganish.	3

T/r	Tadbir nomi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar	Asos	Maqsad (kutilayotgan natija)	Baholash**
	ma'lumot tayyorlash va Adliya vazirligiga axborot berish.			intellektual mulk obyektlariga rioya etilishi holati yetarli darajada nazoratga olinmaganligi sababli shikoyatlar kelib tushmoqda.		

Izoh:

* Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar Boshqarmaning mavjud bino, moliyaviy mablag'lari va moddiy-teknik vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (raqami) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.